

JARROHLIK AMALIYOTIDA YIRINGLI INFEKSIYALARNI PROFILAKTIKASI

Salimov Sodiqjon Saidjon o'g'li
Qo'qon universiteti Andijon filiali
Tibbiyot fakulteti Davolash ishi
salimovsodiqjon447@gmail.com

Annatatsiya. Jarrohlik amaliyotida yiringli infeksiyalarni profilaktikasi - bu operatsiya vaqtida yoki undan keyin paydo bo'lishi mumkin bo'lgan infeksiyon asoratlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. Yiringli infeksiyalar ko'pincha aseptika va antiseptika qoidalariga amal qilinmaganda, steril sharoitlar buzilganda yoki bemorning immuniteti pasaygan holatlarda rivojlanadi. Jarrohlik amaliyoti - inson hayotini saqlab qolishning eng nozik va mas'uliyatli jarayonidir. Har bir kesma, har bir tikuv, har bir nafas - aniqlik va poklikni talab etadi. Ammo jarrohlik sohasida eng katta xavf - yiringli infeksiya hisoblanadi. U ko'rinmas, ammo kuchli dushman. Yiringli infeksiya nafaqat bemorning sog'lig'ini, balki uning hayotini ham xavf ostiga qo'yadi. Poklik - jarrohlikning yuragi. Yiringli infeksiya - mikroorganizmlarning yaraga kirib, to'qimalarda yallig'lanish, yiring ajralishi va og'riq chaqiruvchi jarayondir. Yiringli infeksiyalar ko'pincha operatsiyadan keyin paydo bo'ladi. Shu sababli parvarish jarayoni ham muhim bosqich hisoblanadi.

Kalit so'z. Yiringli infeksiyalarning jarrohlikdagi ahamiyati, jarrohlik asbob-uskunalarining sterilizatsiyasi, infeksiyalarning sabablari va xavf omillari, asoratlarni erta aniqlash va bartaraf etish usullari, profilaktik tadqiqotlar va ularning ahamiyati.

Аннотация. Профилактика гнойных инфекций в хирургической практике - это комплекс мероприятий, направленных на предотвращение инфекционных осложнений, которые могут возникнуть во время операции или после неё. Гнойные инфекции чаще всего развиваются при несоблюдении правил асептики и антисептики, нарушении стерильных условий или при снижении иммунитета пациента. Хирургическая операция это один из самых тонких и ответственных

процессов, направленных на сохранение человеческой жизни. Каждый разрез, каждый шов, каждое дыхание требуют точности и чистоты. Однако наибольшую опасность в хирургии представляет именно гнойная инфекция - невидимый, но очень сильный враг. Гнойная инфекция ставит под угрозу не только здоровье пациента, но и его жизнь. Чистота - это сердце хирургии. Гнойная инфекция - это процесс, при котором микроорганизмы проникают в рану, вызывая воспаление тканей, образование гноя и боль. Чаще всего такие инфекции развиваются после операции, поэтому процесс ухода за больным является не менее важным этапом.

Ключевые слова. значение гнойных инфекций в хирургии, стерилизация хирургических инструментов и оборудования, причины и факторы риска инфекций, методы раннего выявления и устранения осложнений, профилактические исследования и их значение.

Annotation. Prevention of purulent infections in surgical practice is a set of measures aimed at avoiding infectious complications that may occur during or after surgery. Purulent infections often develop when the rules of asepsis and antisepsis are not followed, sterile conditions are violated, or the patient's immune system is weakened. Surgical intervention is one of the most delicate and responsible processes aimed at saving human life. Every incision, every stitch, every breath requires precision and cleanliness. However, the greatest danger in surgery is purulent infection - an invisible but powerful enemy. A purulent infection endangers not only the patient's health but also their life. Cleanliness is the heart of surgery. A purulent infection is a process in which microorganisms enter a wound, causing tissue inflammation, pus formation, and pain. Such infections often develop after surgery, which is why postoperative care is also considered an essential stage of treatment.

Keywords. significance of purulent infections in surgery, sterilization of surgical instruments and equipment, causes and risk factors of infections, methods of early detection and elimination of complications, preventive research and its importance.

Kirish. Profilaktika uch bosqichda amalga oshiriladi. Preoperatsion bosqichda bemor to'liq tekshiruvdan o'tkaziladi, surunkali infeksiyalar davolanadi, teri antiseptik bilan ishlanadi va zarur hollarda profilaktik antibiotik yuboriladi. Intraoperatsion bosqichda steril asbob-uskunalar, operatsion xona va tibbiy xodimlarning gigiyenasi nazorat qilinadi, to'qimalarga ehtiyotkor munosabatda bo'linadi. Postoperatsion bosqichda yara parvarishi, antiseptik ishlov berish va bog'lovlarni vaqtida almashtirish orqali infeksiyaning oldi olinadi. Shuningdek, antibiotik profilaktikasi muhim o'rin tutadi - u infeksiya xavfi yuqori bo'lgan hollarda operatsiyadan oldin beriladi. Umuman olganda, yiringli infeksiyalarni oldini olish bemorning tiklanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Uning asosiy sabablari sterilizatsiya qoidalariga amal qilmaslik, jarrohlik asboblarning iflos bo'lishi, jarroh yoki hamshiraning gigiyenaga e'tiborsizligi, bemorning immun tizimining sustligi. Infeksiyani keltirib chiqaruvchi omillar, havodagi chang va bakteriyalar, jarrohlik kiyimlarining iflosligi, yiringli kasalliklarga chalingan bemor bilan aloqa. Bir beparvolik - minglab mikroblar uchun eshik ochadi. Muhim qoidalar. Yaralar muntazam antiseptik bilan tozalanib turishi kerak, Bog'lovlar va bintlar steril holatda saqlanishi kerak, Bemor gigiyenasiga rioya qilish, hamshira ehtiyotlik bilan bemorning yarasini bog'lash, immun tizimini mustahkamlash kerak. Jarrohlik amaliyoti tibbiyotning eng muhim va mas'uliyatli sohalaridan biri bo'lib, bunda bemorga qilinadigan har qanday aralashuv infeksiyon asoratlari xavfi bilan kechadi. Ayniqsa, yiringli infeksiyalar og'ir kechishi, uzoq muddatli davolashni talab qilishi va bemorning hayoti uchun xavf tug'dirishi mumkin. Shu sababli, jarrohlikda yiringli infeksiyalarni oldini olish - profilaktika choralariga alohida e'tibor qaratiladi. Yiringli infeksiyalar - bu mikroorganizmlar (ko'pincha bakteriyalar) ta'sirida yuzaga keladigan to'qimalarning yallig'lanishi bo'lib, ularning asoratlari orasida abscess, flegmona, yara infeksiyalari, osteomyelit, hatto sepsis holatlari ham bo'lishi mumkin. Infeksiyalar, odatda, aseptika va antiseptika qoidalariga amal qilinmaganda, operatsiya vaqti haddan tashqari cho'zilganda yoki bemorning immuniteti past bo'lsa yuzaga keladi. Bu kasalliklarga odatda, jarrohlik yoli bilan kompleks davo qilinadi. Organizmning fiziologik funksiyasiga, tashqi ta'sirga

immunobiologik javob berish qobiliyatiga va qarshilik ko'rsatishga salbiy ta'sir korsatuvchi tashqi muhitning turli-tuman omillari yoki kuchli qo'zg'atuvchilar xirurgik infeksiyaning ko'payishiga imkoniyat yaratadi. Kasallikning avj olishida kasallik tug'diradigan mikroblar kata rol oynaydi. Xirurgik infeksiyani qozg'ovchi mikroblar atrof-muhitda ham, inson badani sirtida ham, shuningdek, nafas olish yo'llari va ichaklar bo'shlig'ining shilliq pardasida ham mavjud. Ular organizmga kirish darvozasi deb ataluvchi teri va shilliq pardalarning shikastlanishi tufayli yoki nafas olish, me'da-ichak va tanosil yo'llari orqali tushadi. Organizmga tushgan mikroorganizmlar miqdori qanchalik kop, ular qanchalik virulentli va organizmning tashqi ta'sirga qarashlilik ko'rsatishi nechog'lik zaif bolsa, xirurgik infeksiyaning rivojlanish ehtimoli shunchalik kop boladi. Yiringli yallig'lanish kasalliklari va jarohat infeksiyasi necha-necha asrlardan buyon umumiy jarrohlikning asosiy muammolaridan biri bolib keldi shunday bolib qolmoqda. Yiringli infeksiyalarni oldini olishda bir nechta muhim bosqich mavjud. preoperatsion, intraoperatsion va postoperatsion chora-tadbirlar. Operatsiyagacha bo'lgan (preoperatsion) bosqichda bemorning umumiy holatini baholash, surunkali infeksiyalar mavjudligini aniqlash va ularni davolash zarur. Masalan, bemorda tish infeksiyasi, siydik yo'llari yoki teri kasalliklari mavjud bo'lsa, ular bartaraf etilishi kerak. Shuningdek, bemorning terisi antiseptiklar bilan tozalanadi, operatsiya sohasidagi sochlar, agar kerak bo'lsa, olib tashlanadi. Gigiyenik qoidalarga qat'iy amal qilish bu bosqichda muhim ahamiyatga ega. Intraoperatsion davrda esa, barcha asbob-uskunalar va jarrohlik xonasi to'liq steril bo'lishi, jarroh va tibbiy xodimlar shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilgan holda operatsiyani o'tkazishi kerak. Aseptika va antiseptika qoidalari buzilmasligi lozim. Operatsiya iloji boricha tez, ammo sifatli o'tkazilishi infeksiya xavfini kamaytiradi. Operatsion travmani kamaytirish, qon ketishini nazorat qilish, to'qimalarni iloji boricha ehtiyotkorlik bilan muomala qilish muhim omillardandir. Operatsiyadan keyingi (postoperatsion) davrda esa, yarani muntazam tozalash, antiseptik vositalar bilan ishlov berish, bog'lovlarni o'z vaqtida almashtirish va bemor holatini nazorat qilish asosiy vazifalardir. Haroratning ko'tarilishi, yara joyida shish, qizarish yoki yiring ajralishi infeksiya belgisi bo'lishi

mumkin va bunday holatlarda shoshilinch choralar ko‘rilishi lozim. Profilaktik antibiotikoterapiya ham juda muhim sanaladi. Ko‘p hollarda operatsiyadan 30–60 daqiqa oldin bemorga antibiotik yuboriladi. Bu antibiotik qon va to‘qimalarda kerakli darajada ta‘sir etuvchi kontsentratsiyaga erishishga yordam beradi. Biroq antibiotiklarni noto‘g‘ri qo‘llash yoki uzoq muddatli profilaktika antibiotikga chidamli bakteriyalarni rivojlantirishi mumkin. Shu sababli antibiotik tanlovi va qo‘llanilish muddati shifokor tomonidan ehtiyotkorlik bilan belgilanadi. Jarrohlik amaliyotida yuzaga keladigan yiringli infeksiyalar - bu operatsiyadan keyingi asoratlarning eng keng tarqalgan va xavfli turlaridan biridir. Ular bemor salomatligiga katta zarar yetkazib, shifo muddatini uzaytiradi, reoperatsiyaga olib keladi, hatto o‘lim xavfini oshiradi. Jarrohlik amaliyotida yiringli infeksiyalarni profilaktika qilish - bu faqat tibbiy ko‘rsatmalar emas, balki kasalliklarni oldini olishga qaratilgan mas‘uliyatli yondashuvdir. Bemorning holati, operatsiya sharoitlari va tibbiy xodimlarning tajribasi bu borada katta ahamiyatga ega. Har bir bosqichda zarur qoidalarga rioya qilinsa, infeksiyon asoratlarning oldi olinadi va bemorning sog‘ayish jarayoni ancha tezlashadi.

Xulosa Jarrohlik amaliyotida yiringli infeksiyalarni oldini olish bu zamonaviy tibbiyotda nafaqat davolash sifati, balki bemorning hayotiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan muhim omillardandir. Yiringli infeksiyalar operatsion jarayonlarning og‘ir asoratlaridan biri bo‘lib, ularni samarali profilaktika qilish uchun kompleks va tizimli yondashuv talab etiladi. Preoperatsion tayyorgarlikdan boshlab, operatsiya davomida steril muhitni saqlash, operatsiyadan keyingi parvarish va antibiotikoterapiya orqali infeksiyon xavf omillarini minimallashtirish mumkin. Shuningdek, tibbiy xodimlarning gigiyenaga amal qilishi, malakali yondashuvi va zamonaviy standartlarga rioya qilinishi bu boradagi muhim kafolatlardan biridir.

Shu boisdan, yiringli infeksiyalarni profilaktika qilish har bir jarroh va tibbiyot muassasasining ustuvor vazifasiga aylanishi lozim. Bu esa bemor xavfsizligini ta‘minlash, davolash natijalarini yaxshilash va sog‘liqni saqlash tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jarrohlik infeksiyalari, M.S. Toirov, T.A. Mamatqulov - Toshkent, 2019
2. Umumiy jarrohlik, T.A. Mamatqulov, M.K. Muxitdinov - Toshkent, 2020
3. Klinik mikrobiologiya va immunologiya asoslari, Z.T. Karimova - Toshkent, 2021
4. Sabiston Textbook of Surgery, 20th edition - Elsevier, 2022
5. Operatsion jarrohlik va topografik anatomiya, R.Yu. Kadyrov va boshqalar Toshkent - 2018.